

O'ZBEK TILIDAGI SO'Z BIRIKMASINING SINTAKTIK TASNIFI

Jomoliddin Togaymurodov

Iqtisodiyot va Pedagogika universiteti o'qituvchisi

Asila Tursunova

Iqtisodiyot va Pedagogika universiteti talabasi

Anotatsiya:

Ushbu maqolada O'zbek tilidagi so'z birikmasining sintaktik tasnifi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Bunda so'z birikmasi, uning turlari va birikish usullari haqida muhokama qilingan va misollar orqali yoritilgan.

Tayanch so'zlar: So'z birikmasi, so'z birikmasi turlari, birikish usullari, teng va tobe bog'lanish.

Annotation:

This article provides information on the syntactic classification of the phrase in the Uzbek language. In which the phrases, its types and joining methods are discussed and explained through examples.

Keywords: Phrase, types of phrases, methods of joining, equal and subordination connecting.

Kirish.

Bugungi kunda tilshunoslar tomonidan so'z birikmalari haqida ma'lumotlar to'planib, yangilanib bormoqda. So'z birikmasi haqida fikr yuritganimizda, so'z birikmasiga oid tushuncha va uning barcha turlari va nazariyalari e'tiborimizni tortadi. Tilshunoslar so'z birikmalari va uning turlariga ta'rif berar ekan, uni predmet, harakat birligi va yana bir nechta birliklarni ifodalash qobiliyatiga egaligi haqida aytib o'tishgan. So'z birikmalari tilni boyitish va aniq ifodalash uchun katta ahamiyatga ega. Avvalo, so'z birikmasi va uning turlari, birikish usullari haqida ma'lumotlarga e'tibor berib o'tamiz.

So'z birikmasi. Ikki va undan ortiq mustaqil so'zning tobe grammatik aloqa (moslashuv, boshqaruv yoki bitishuv) asosida birikishi natijasida hosil bo'lgan, borliqdagi narsa va hodisalarning nomini bildiradigan sintaktik tuzilmaga So'z birikmasi deyiladi. Har qanday so'z birikmasi birdan ortiq mustaqil so'zning birikuvidan hosil bo'ladi, tuziladi va ikki qismdan (hokim va tobe) qismdan tashkil topad:

1. Tobe so'z - so'roqqa javob bo'lgan so'zlar (har doim tobe so'z birinchi keladi)
2. Hokim so'z - so'roqqa qatnashgan so'z (har doim ikkinchi keladi).

Baland bino - qanday bino? Demak, baland - tobe so'z, bino - hokim so'z!

So'z birikmalari turlari. So'z birikmasi hokim so'zning qaysi turkumga oid so'z bilan ifodalanishiga qarab, ikki guruhga bo'linadi:

1. Otli soʻz birikmasi – hokim soʻz ot va otlashgan soʻzlar bilan ifodalanadi (xullas, feʼldan boshqa soʻz turkumlari bilan): shaharning koʻchalari, hammasidan katta, chumchuqning chugʻur-chugʻuri, oʻquvchilarning beshtasi, beqiyos oʻlka.

2. Feʼlli soʻz birikmasi -hokim soʻz faqat feʼl bilan ifodalanadi: kitobni oʻqimoq, daftarga yozmoq, tez yugurmoq, ohista gapirmoq.

1. Sifat + ot birikmasi:

- Bu turdagi soʻz birikmalarida birinchi soʻz sifat (sifatli soʻz) boʻlib, ikkinchisi esa ot (nomaʼlum obʼekt) boʻladi.
- Masalan: **yashil bogʻ, uzoq yoʻl, katta uy.**

2. Oʻtgan zamon + feʼl birikmasi:

- Feʼlning oʻzgarishi, vaqtni yoki holatni koʻrsatadi.
- Masalan: **yurib kelgan, ovqatni tayyorlagan, kitobni oʻqigan.**

3. Ot + predlog birikmasi:

- Bu turdagi birikmalarda ot predlog (or, haqida, ichida, ustida) bilan bogʻlanadi.
- Masalan: **kitob haqida, suv ustida, yoʻlga chiqish.**

4. Feʼl + ot birikmasi:

- Feʼl va otning birikmasi natijasida yangi maʼno paydo boʻladi.
- Masalan: **kitob oʻqish, ovqat tayyorlash, ish boshlash.**

Soʻz birikmalarining xususiyatlari:

- **Mustaqil va bogʻlangan soʻzlar:** Soʻz birikmasidagi har bir soʻz oʻz mustaqil maʼnosiga ega boʻlsa-da, ularning birgalikda ishlatilishi yangi maʼno yaratadi.
- **Sintaktik roli:** Soʻz birikmasi bir butun boʻlib ishlaydi, yaʼni ular bir maqsadga yoki vazifaga yoʻnaltirilgan boʻladi.
- **Grammatik jihatlari:** Soʻz birikmalarining grammatik tuzilishi ham muhim ahamiyatga ega. Ularning tarkibidagi soʻzlar orasidagi munosabatlar grammatik qoida va maʼno orqali aniqlanadi.

Soʻz birikmalari tilni boyitish va aniq ifodalash uchun katta ahamiyatga ega.

Soʻz birikmasida soʻzlarning oʻzaro birikish usullari.

Tobe soʻzning hokim soʻzga qaratqich kelishigi qoʻshimchasi yordamida, hokim soʻzning esa tobe soʻzga egalik qoʻshimchasi yordamida bogʻlanishi Moslashuv deyiladi: **kitobning muqovasi, bizning sinfimiz.**

Soʻz birikmalari tarkibidagi tobe va hokim soʻzni hech qanday qoʻshimchalarsiz, faqat ohang va maʼnosiga koʻra bogʻlanishi **Bitishuv** deyiladi: **tez yugurmoq, chiroyli gapirmoq....**

Tobe soʻzning hokim soʻzga tushum, joʻnalish, oʻrin-payt va chiqish kelishiklari qoʻshimchalari yoki koʻmakchilar yordamida boshlanishi Boshqaruv deyiladi: **doʻstlarni hurmat qilmoq, gʻalaba uchun kurashmoq, yoshlarga gʻamxoʻrlik qilmoq.**

Eslatma! Bilan koʻmakchisi savolda qatnashmasa bitishuv! Zavq bilan tinglamoq, ishtaha bilan yemoq.

Taqqoslang:

a) Qoshiq **bilan** yemoq - nima bilan yemoq (**boshqaruv**)

b) Maroq **bilan** eshitmoq - qay holda eshitmoq (**bitishuv**)

Soʻz birikmasi mazmun va ohang tugalligiga ega boʻlmaydi, fikr ifodalamaydi va shu xususiyati bilan sintaktik birlik boʻlmish gapdan farqlanadi. Teng bogʻlanish soʻz qoʻshilmasini, tobe bogʻlanish soʻz birikmasini hosil qiladi.

Teng bogʻlanish va tobe bogʻlanish. Soʻzlarning oʻzaro bogʻlanishi 2 xil:

1. Teng bogʻlanish – ikki soʻzning teng huquqli, biri ikkinchisiga boʻysunmay boʻlanishi: opam va kitob, uy va tom kabi. Bir xil gap boʻlagi vazifasida kelib, koʻpincha bir xil soʻroqqa javob boʻluvchi boʻlaklarning oʻzaro teng bogʻlovchilar yoki sanash ohangi yordamida bogʻlanishi teng bogʻlanish deyiladi. Quyidagi vositalar teng bogʻlovchilar hisoblanadi:

a) **biriktiruv bogʻlovchilari:** va, hamda, bilan; („bahor keldi va daraxtlar uygʻondi“)

b) **zidlov bogʻlovchilari:** ammo, lekin, biroq; („u ishga bordi, biroq ishlamadi“);

c) **ayiruv bogʻlovchilari:** yo, yoki, yo-yo, goh-goh, dam-dam; („dam havo ochiladi, dam yomgʻir yogʻadi“);

d) **gumon yuklamasi:** na...na; („na yomgʻir yogʻadi, na havo ochiladi“)

e) **kuchaytiruv – taʼkid yuklamasi:** -u, -yu, -da; Necha marta uchrashay dedimku, vaqtim boʻlmadi;

f) **sanash ohang:**

Eslatma! Gapdagi soʻzlar sanash ohangi yordamida bogʻlanganda ular vergul bilan ajratiladi va teng bogʻlanishga olinadi: **Choʻlpon, Oybek** asarlari. Bu yerda Choʻlpon va Oybek soʻzlari teng bogʻlangan.

2. Tobe bogʻlanish – bir soʻz (tobe soʻz)ning boshqa bir soʻz (hokim soʻz)ga boʻysunishi orqali bogʻlanish. Tobe bogʻlanish doimo ikki qismdan iborat boʻladi: tobe boʻlak va hokim boʻlak: opamning(**tobe**) kitobi(**hokim**), uyning(**tobe**) tomi(**hokim**). Bogʻlovchi vositalar:

a) **koʻmakchilar;** Ot, va otlashgan soʻzlardan keyin kelib, ularni boshqa soʻzlarga tobelanish yoʻli bilan bogʻlaydigan yordamchi soʻzlar **koʻmakchi** deyiladi: **Oʻz qoʻli bilan toʻgʻriladi**

b) **kelishik qoʻshimchalar;** ot yoki otlashgan soʻzning boshqa soʻzlar bilan aloqasini koʻrsatuvchi grammatik shakl. Oʻzbek tilida 6 ta kelishik boʻlib, ular bosh (qoʻshimchasiz), qaratqich (qoʻshimchasi: ning), tushum (qoʻshimchasi: -ni), joʻnalish (qoʻshimchasi: -ga, -ka, -qa), oʻrin (qoʻshimchasi: -da), chiqish (qoʻshimchasi: -dan) kelishiklaridan iborat.

c) **egalik qoʻshimchalar;** :

Birlik

I. -m, -im

II. -ng, -ing

III. -i, -si

Koʻplik

I. -miz, -imiz

II. -ngiz, -ingiz

III. -(lar)i

d) ohang:(tobelantiruvchi)

e) shaxs-son(ega kesim moshlashuvi).

So'zlarning teng bog'lanishi so'z qo'shilmalarini hosil qiladi. So'z qo'shilmasi har bir so'z ma'no mustaqilligini, alohida-alohida narsalarni nomlab kelish xususiyatini saqlab qoladi:**akam** va **kitob**, **Oygul** bilan **Baxtiyor** kabi.

Eslatma! Sifat+ot shaklidagi so'z birikmalarida tobe va hokim so'zlarning o'rni almashtirilsa, gap hosil bo'ladi. Masalan: chiroyli qiz – qiz chiroyli(dir), katta ko'cha – ko'cha katta(dir).

Umumiy tahlil!

Shubhasiz, barkamol avlodning buguni va ertasi bor.(Ushbu gapdan so'z birikmalarini toping?)

So'z birikmalari: avlodning buguni, avlodning ertasi, barkamol avlodning. (Ega har doim kesimga bog'lanadi va so'z birikmasiga olinmaydi. Tobe bog'lanish so'ralganda esa olinadi. Shuning uchun ushbu gapda berilgan **buguni bor**, **ertasi bor** degan so'zlar so'z birikma bo'lib kelolmaydi.)

Xalqim, Vatanim uchun zavq va shavq bilan xizmat qilaman.(Ushbu gapda so'z birikmalarini toping?)

So'z birikmalari: Xalqim uchun xizmat qilaman, Vatanim uchun xizmat qilaman, zavq bilan xizmat qilaman, shavq bilan xizmat qilaman.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, So'z birikmalari turli grammatik tuzilmalarga ega bo'lib, ular tilni aniqroq va to'g'ri ifodalashda muhim ahamiyatga ega. So'z birikmalarining o'ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, ular birgalikda ma'no to'ldirib, fikrlarni ravon va aniq ifodalashga imkon beradi. So'z birikmalarini to'g'ri ishlatish, nutqning aniq va tushunarli bo'lishini ta'minlaydi. biz so'z birikmasini o'zimiz anglamagan holda nutqimizda foydalanamiz, shuning uchun ham grammatikasini o'rganish ko'p qiyinchiliklarni yuzaga chiqarmaydi. Va yana shuni ta'kidlab o'tish joizki, so'z birikmalari strukturasi, grammatik tuzilishi va ba'zi o'rinlarda gapga teng kelishi bilan murakkab tuzilma sanaladi. Ular uchun ayni bir qolip berilmaydi mustaqil bo'lib qo'llaniladi. So'z birikmasida murakkab qoidalar bo'lishi mumkin, ammo, uni hayotiy misollar orqali tushuntirish juda qulay sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Togaymurodov, J. K. (2024). A LOOK AT THE ZAKIROV DYNASTY. Web of Discoveries: Journal of Analysis and Inventions, 2(5), 152-156.
2. Togaymurodov, J. K. (2024). THE LEGACY LEFT BY BOTIR ZAKIROV. European Science Methodical Journal, 2(5), 186-191.
3. Togaymurodov, J. (2023). SOCIAL POTENTIAL OF RELIGIOUS TOLERANCE. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 11(5), 215-218.
4. Tog'aymurodov, J., & Toshtemirova, G. (2024, October). JAHON SIYOSATIDA GLOBALASHUVNING O'RNI. In CONFERENCE ON THE ROLE AND IMPORTANCE OF SCIENCE IN THE MODERN WORLD (Vol. 1, No. 9, pp. 9-11).
5. Togaymurodov, J., & Sharipova, S. (2024). SPIRITUALITY AS THE FOUNDATION OF HUMAN AND SOCIETAL CULTURE. Western European Journal of Historical Events and Social Science, 2(10), 70-73.

6. Togaymurodov, J., & Karimova, S. (2024). TASKS OF MAINTAINING RELIGIOUS TOLERANCE IN THE CONDITIONS OF GLOBALIZATION. Web of Teachers: Inderscience Research, 2(11), 321-325.
7. 7.Togaymurodov, J., & Toshtemirova, G. (2024). ISLAM AND ITS OPPOSITION FACTORS. Web of Humanities: Journal of Social Science and Humanitarian Research, 2(11), 151-154.
8. Togaymurodov, J., & Sharipova, S. (2024). INCREASED DEMAND FOR ALCOHOL AND SMOKING AMONG YOUTH. Western European Journal of Historical Events and Social Science, 2(11), 119-122.